

**KOMIL FARZAND SIFATLARI, OILADA FARZANDNI BARKAMOL QILIB
TARBIYALASHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARI.**

Bahronova Mavluda O'tkir qizi

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti o'qituvchisi

bahronovamavluda92@gmail.com

Tel: +998993373971

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oilada farzandni barkamol tarbiyalash yo'llari tahlil qilingan. Oila jamiyatning asosi sifatida farzandning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy-psixologik rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynashi ta'kidlangan. Tadqiqotda oilaviy tarbiyaning ijtimoiy jihatini, milliy qadriyatlarning axloqiy tarbiyadagi o'rni va zamonaviy oilalardagi tarbiya jarayonining o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, ota-onaning shaxsiy namunasi, farzand bilan muloqot qilish uslublari va oilaviy muhitning bola ruhiyatiga ta'siri batafsil ochib berilgan. Ushbu tadqiqot oilaviy tarbiya masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, psixologlar va pedagoglar uchun foydali bo'lishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *Oila, ota-ona, jamiyat, ota-ona bilan farzand bog'liqligi, shaxsiy na'muna.*

Annotation: *This article analyzes ways to raise well-rounded children within the family. It emphasizes the crucial role of the family, as the foundation of society, in the moral, spiritual, and socio-psychological development of children. The study highlights the social aspects of family upbringing, the role of national values in moral education, and the distinctive features of the upbringing process in modern families. Furthermore, it elaborates on parental role modeling, communication styles with children, and the impact of the family environment on a child's psychology. This research can be beneficial for specialists, psychologists, and educators working on family upbringing issues.*

Keywords: *Family, parents, society, parent-child connection, role modeling.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы пути воспитания всесторонне развитого ребенка в семье. Подчеркнута решающая роль семьи как основы общества в нравственном, духовном и социально-психологическом развитии ребенка. В исследовании освещены социальные аспекты семейного воспитания, роль национальных ценностей в нравственном воспитании и особенности воспитательного процесса в современных семьях. Кроме того, подробно раскрыты личный пример родителей, методы общения с детьми и влияние семейной атмосферы на психологию ребенка. Данное исследование может быть полезно для специалистов, психологов и педагогов, занимающихся вопросами семейного воспитания.*

Ключевые слова: семья, родители, общество, связь родителей и ребенка, личный пример.

Kirish: Oilada farzandni barkamol qilib tarbiyalash – bu har bir ota-onaning asosiy vazifalaridan biridir. Barkamol tarbiya bolaning jismoniy, aqliy, ma'naviy va axloqiy jihatdan har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashishni talab qiladi.

Oilaning ahamiyati: Oila – jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim bo'g'ini. Bola tarbiyasi aynan oiladan boshlanadi, chunki oila bolaga birinchi bilim va odatlarni singdiradi. Oila muhitining sog'lomligi bolaning kelajakdagi xarakteriga va muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Barkamol avlod tarbiyasi ota-onaning mas'uliyatini, ularning farzandga nisbatan e'tiborini va muhabbatini talab qiladi. Tarbiya faqatgina maktab yoki jamiyatning emas, avvalo oila muhitining natijasidir. Ma'naviy qadriyatlar va axloqiy tarbiya barkamol avlodni shakllantirishda asosiy o'rinni egallaydi. Bolaga halollik, odob, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni o'rgatish uning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy hayotini belgilaydi.

Materiallar va uslublar:

Oila jamiyatning asosi hisoblanadi. Avvalombor, komil farzand sifatlarini ko'rib chiqaylik. Komil farzand – bu jismoniy, ma'naviy, aqliy va axloqiy jihatdan barkamol bo'lib yetishgan shaxs. Komil farzandning sifatlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: Axloqiy fazilatlar: Komil farzand har doim halol bo'lib, yolg'on va firibdan yiroq bo'ladi. Kattalarga hurmat ko'rsatadi, kichiklarga mehribon bo'ladi. O'z harakatlari uchun javobgarlikni his qiladi va noto'g'ri ish qilganida pushaymon bo'lib, uni tuzatishga harakat qiladi. Har qanday vaziyatda adolatli bo'lib, boshqalarning huquqlarini hurmat qiladi.

2. Ma'naviy fazilatlar: Milliy, diniy va insoniy qadriyatlarni biladi va ularga amal qiladi.

Atrofdagilarga mehr bilan munosabatda bo'ladi, bag'rikeng va kechirimli.

O'z-o'zini rivojlantirishga intilish: Har doim yaxshilikka intilib, bilim va fazilatlarini oshirishga harakat qiladi.

3. Aqliy fazilatlar: Komil farzand doimo bilim olishga intiladi va yangi narsalarni o'rganishga qiziqadi. Har qanday masalani chuqur tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqara oladi. Yangilik yaratishga, ijodiy fikrlashga qodir bo'ladi.

4. Jismoniy sog'lomlik: O'z sog'lig'iga e'tiborli bo'lib, jismoniy mashqlar va sog'lom ovqatlanishni odat qiladi. Faol bo'lib, harakat qilish va foydali ish bilan shug'ullanishni yoqtiradi.

5. Ijtimoiy fazilatlar: Yaxshi so'zlashuv ko'nikmalariga ega, do'stona va madaniyatli munosabat qiladi. Jamiyatda o'z o'rnini topa oladi va boshqalar bilan hamkorlikda ishlashni biladi. Oilasi, jamiyati va atrofdagilarga nisbatan o'z vazifalarini bajarishga intiladi.

6. Irodali bo'lish: Qiyinchiliklarga chidamli va o'z maqsadlariga erishishda qat'iyatli bo'ladi. Hissiyotlarini nazorat qila oladi va har qanday sharoitda o'zini munosib tutadi.

To'g'ri yo'ldan adashmay, har qanday sharoitda maqsadlariga erishish uchun harakat qiladi.

ota-ona va farzandlar oila a'zolari hisoblanishadi. Ota-onalarning farzandni erkalashlari, quchoqlashlari juda muhim jihat hisoblanadi. Psixolog olimlarning ta'kidlashicha, bolani ota-onasi 40 martagacha quchoqlab o'pishi kerak bo'ladi. Chunki bag'riga qattiq bosganda bola ota-onasining quvvatini his qiladi, kerakli ekanligini, ota-onasi uni suyushini his qiladi. Bola yiliga 7 marta kasal bo'lsa, bolada nevroz kasalligi boshlangan hisoblanadi. Ota-onani mehr kam berganligi, e'tibori kamligi yotadi. Yetarli dajada e'tibor kam berilgan, mehr kam berilgan bolalarda kasallik orqali ota-onani e'tiborini qaratmoqchi bo'ladi, buni shifokorlarimiz ham ta'kidlashadi. 3 yoshgacha ona va bola ajralmas bo'lishi kerak. Bog'chaga ham 3 yoshdan keyin berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bola yugurib ketadi onasini quchoqlaydi, yana yugurib ketadi. Shu tarzda u onadan quvvat ovoladi. 3-yoshdan 6-yoshgacha otada shunday bo'lishi kerak. Bolani oldida, yaqin joyda bo'lishi kerak. Ajrashish arafasida turgan oilalarga bola 7 yoshga to'lishini kutish lozimligi uqtiriladi. Ajrashish Misol ta'riqasida, bir kichik maktab yoshidagi bola tomga chiqib, toki otam kelmaguncha tushmayman degan fikrni aytadi. Surushtirib aniqlashsa, ota-ona ajrashganligi, bola onasi bilan yashashligi aniqlanadi. Bola e'tiborini tortish uchun, otasini ko'rish uchun bo'lgan stress, shunday affektiv holatga olib kelgan. 3-yoshgacha emotsional yaqinlik, 5 yoshdan berilgan topshiriqlarni nazorat qilish va javobgarlik hissini shakllantirish lozim nazarimizda. 7 yoshgacha bolada ustanovkalar o'rnatiladi. Shu yoshgacha bolada shaxsiy na'munani ko'rsatish lozim. Ilmli, qadriyatga suyanadigan insonlarni oldida voyaga yetsa, bolada bir qarorga kelish, munosabat bildirish, xulq-atvorini ko'rsatishni o'rganadi. 5 yoshdan 14 yoshgacha bola bilan do'st bo'lishimiz lozim. Bolani 5 yoshigacha urushmaymiz, talashmaymiz, lekin tushuntirish ishlarini olib borish kerak. Misol uchun, "bu sovuq suv, sovuq suvni ichsa tomog'i og'riydi" deyish mumkinmas aslida, sababini bilishi kerak bo'ladi. 5 yoshli bolaga biroz qattiqqo'lroq turish mumkin. Urushib, so'kib, qovoq uyib unaqa qilmaysan man ruhsat bermayman emas, unga chegaralab qo'yish kerak bo'ladi. Uy vazifasini qiladigan vaqti, ovqatlanish vaqti, nima yesa foydali, nima yesa sog'liqqa zarar, shu narsalarni chegaralangan holda tushuntirish kerak bo'ladi. Bolani uyqu holatiga juda ahamiyatli bo'lish kerak. Oxirgi vaqtlarda qiz bola va o'g'il bolalarda jinsiy rivojlanish kuchayib ketmoqda. Aqliy jihatdan u hali bola. Buni sababi aynan kech uxlaganidan, 1-2 gacha internetda o'tirib, vaqtida uyquga ketmaganidan. Buni ota-ona nazorat qilishi kerak. Bola 22: 00 uxlagani kirishi lozim. Ota-ona bolaga nimanidir anglatmoqchi bo'lsa, aytilayotgan gapni bolaga tushuntirishdan oldin ular o'zlari na'muna bo'la olishlari lozim. "Darsingni qil, kitob o'qi" deyishdan oldin ota-ona o'zi kitob o'qishi lozim, shunda bolaga kitob o'qi deyish shart emas. Bolalar o'zlari bajarishadi. Bolalarga minnotdorlik bildirish, boringga Shukur deyish ham kerak, hurmat

qilishi lozim. Oddiy yumushlarni bajarishi, siz so'ragan biror narsani olib berganda ham, topshiriqlarni bajarganida ham Rahmat aytish lozim. Va yana uzr so'rashni ham biz ot-onalar bilishimiz lozim.

Natijalar va muhokamalar:

Har qanday ona borki, u notiq bo'lishi lozim. Nega? Chunki, ular kelajak farzandlarini, kelajak avlodlarni voyaga yetqazayotgan xilqatdirlar. Biz ona o'laroq, farzandlarimizda fikrlarimizni, talablarimizni, oilaviy an'alarimizni barchasini izhor etishda o'zimizga ishonch bilan gapirishimiz lozim. Har qanday tanqidiy fikrni ham, ko'ngilga ozor bermaydigan qilib, farzandlarimizni dilini og'ritmaydigan tarzda ifoda etishimiz uchun ham bizda notiqlik ko'nikmalari bo'lishi lozim. Bunday ko'nikmalarni esa onani o'qitibgina erisha olamiz. Farzandga saymoya tikish kerak deyishadi. Bugungi zamon esa bolaning onasi ilm olishiga pul tikishni talab qilyapti. Nimagaki, zamon taraqqiy etmoqda, texnika taraqqiyot asrida yashayapmiz, bolalarimizni gadjetlarga ehtiyoji oshib bormoqda. Ota-ona bolaga telefon olib beryapti, dars qilsin, xavfsizligini ta'minlash maqsadida, gadjetlardan to'g'ri yo'lda foydanayotgan va noto'g'ri maqsadlarda foydalanayotganlar ham bor, bu ularning fe'l-atvoriga ham o'z ta'sirini o'tqazmay qo'ymayapti. Onlayn pulli o'yinlar, bolalarni manupulyatsiya qiladigan ma'lumotlar, faxsh videolar, bizni qadriyatlarimizga to'g'ri kelmaydigan turli oqim va guruhlarga qo'shilish holatlari ham kuzatilmoqda oramizda. Bolada qanday jarayon ketayotgani va bu holat qaysi vaziyatdan keyin yuzaga keldi, ona baholay olishi lozim. Buning uchun esa onalarga ilm kerak bo'ladi. Onaning mas'uliyati shundaki: Otalar ta'minot bilan mashg'ul bo'lganligi sababli, ona bolalarni uyg'onganidan toki uyqu vaqtigacha nazorat qiladi. O'zining salohiyati o'ziga yetmasa, bolalariga qanday munosabatda bo'ladi.

Xulosa sifatida:

Farzand tarbiyasi bu faqat qoidalar yoki o'g'itlar emas, balki mehr, tushunish, muloqot va yaxshi namuna orqali amalga oshadigan murakkab jarayondir. Barkamol avlodni tarbiyalashda ota-onaning bilimli, sabrli va bag'rikeng bo'lishi juda muhim. Doktor Ali Sallobiy "Agar farzandingiz ruhiy sog'lom hamda buyuk shaxs bo'lishini istasangiz" deb bir qancha tavsiyalarni berib o'tganlar: 1. Agar siz farzandingizni erkalamoqchi bo'lsangiz, boshini silang. Boshini silaganingizda mehr va muhabbatigizni izhor qilgan bo'lasiz.

2. Agar siz farzandingizni tinchlantirmoqchi bo'lsangiz, peshonasiga qo'lingizni qo'ying, uning ko'ksini silash, peshonasidan o'pib qo'yish kerak.

3. Agar siz ota-ona bo'lib qizingiz, o'g'lingizni qo'llab -quvvatlamoqchi bo'lsangiz, ularga qo'lingizni cho'zing deganlar. Ota-onadan talab qilinadigan oddiy ishlar, lekin natijasi ko'zga ko'rinarli. Komil farzandni tarbiyalash ota-onaning mehribonligi, tarbiyaviy ishlari va to'g'ri namunasiga bog'liq. Farzandning yuqoridagi sifatlarni o'zida mujassamlashtirishi uchun unga doimiy e'tibor va ko'mak zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nazarov, M. "Oilaviy psixologiya asoslari". Toshkent: O'qituvchi, 2021.
2. Davletshin, A. "Oilaning psixologik muhitini shakllantirish". Toshkent: Sharq, 2016.
3. Abduqodirov, A. "Shaxs kamoloti va tarbiya jarayonlari". Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2015.
4. Vygotskiy, L.S. "Psixologiya va ta'lim". Moskva: Pedagogika, 1984.
5. Qurbonov, M. "O'zbek oilasida tarbiya". Toshkent: Ma'naviyat, 2018
6. Internet ma'lumotlari.

